



TARKIBLI ORONIMLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARIGA DOIR (JANUBIY O'ZBEKISTON ORONIMLARI MISOLIDA)

Beginmov Odil To'xtamishovich

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, O'zbek tili va adabiyoti
kafedrasini mudiri, filologiya fanlari doktori
<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7969208>

ARTICLE INFO

Received: 15th May 2023

Accepted: 24th May 2023

Online: 25th May 2023

KEY WORDS

Toponim, oronim, oronimiya, kvalifikator, differensiator, identifikator, geografik obyekt, component.

ABSTRACT

Toponimiyaning boshqa turlari kabi, oronimiyada ham ikki yoki undan ortiq komponentlardan iborat tarkibli oronimlar mavjud. Maqolada geografik obyektning atovchi, toponimning ko'pincha ot bilan ifodalangan aniqlovchi (kvalifikator), sifatlovchi bilan ifodalangan va obyektning farqlovchi (differensiator) hamda obyektning aniqlaydigan geografik termin (identifikator) ning tarkibli oronimlarning yuzaga kelishida qanday semantik xususiyatlarni namoyon qilishi masalasi tadqiq etilgan.

KIRISH

O'zbek tilshunosligida hududiy toponimiya tadqiqiga bag'ishlangan ishlarda toponimlarning grammatik tuzilishi masalasiga ham alohida e'tibor berilgan. T.Nafasov[5], Z. Do'simov[3], X.Xolmo'minov[14], N.Uluqov[13], T. Enazarov[15], A. Aslanov[1], Sh. Temirov[11], S.Bo'riyev[2] va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan monografik tadqiqotlar shular jumlasidandir

Toponimiyaning boshqa turlari kabi, oronimiyada ham geografik terminning tizimlashtiruvchi rolini hisobga olgan holda, tarkibli oronimlarning ikki yoki undan ortiq komponentlardan iborat tuzilishga egaligini ko'rish mumkin. Geografik obyektning atovchi, ixtisoslashtiruvchi, toponimning ko'pincha ot bilan ifodalangan aniqlovchi qismi – kvalifikator, toponimning ko'pincha sifatlovchi bilan ifodalangan va obyektning farqlovchi komponenti differensiator hisoblanadi. Kvalifikator va differensiator aslida toponimning o'zi bo'lib, u nomlanish motivlarini o'zida aks ettiradi. Ammo, bunda, obyekt turini ifodalalaydigan, ya'ni obyektning aniqlaydigan geografik termin toponimdan tashqarida qolishi mumkin bo'lgan, lekin leksik jihatdan kvalifikatorga to'g'ri kelmaydigan identifikatorni ham hisobga olish kerak. Masalan, Temir Darvoza (dara) oronimi uchun kvalifikator darvoza, differensiator (farqlovchi) temir, identifikatori dara geografik termin bo'lib, u oronimdan tashqarida joylashgan.

Boshqa hollarda omonim, ya'ni bir xil shaklga ega toponimlarning identifikatorlari *tog', daryo, tepa* terminlari bo'lishi mumkin; bir xil tuzilishdagi Oqdaryo toponimi uchun obyekt turiga qarab identifikatorlar – daryo, qishloq, tuman va hakoza bo'lishi mumkin. Qo'shma toponimlar komponentlariga bunday yondashish bilan nomlarning metonimik ko'chishi va omonimiyasi masalasini hal qilish mumkin bo'ladi.



TADQIQOTNING METODOLOGIK ASOSLARI VA USULLARI

Tadqiqot metodologiyasi tilshunoslikda kuzatilgan tarixiy tendentsiyaga asoslanadi, ya'ni ma'lum bir tarixiy jarayondagi barcha hodisalar tarixiy shartlar va hodisalardan ajratmasdan talqin qilishga asoslanadi.

Tadqiqotning ilmiy-nazariy bazasini zamonaviy tilshunoslikning onomosologiya sohasida qo'llaniladigan ilmiy fikrlarni tahlil qilish usullari tashkil etadi. Shuningdek, toponimlarning lingvistik tadqiqida jamoa va xususiylik, mohiyat va hodisa, shakl va mazmun bilan uyg'unlashgan dialektik qonuniyatlarga asoslanadi. Tadqiqot usuli sifatida qiyosiy-tarixiy, qayta tiklash, tuzilish va shakllanishiga ko'ra tahlil qilish, til faktlarini solishtirishdan foydalanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Muayyan ma'noda tarkibli toponim doirasida kvalifikator va identifikatorning qarama-qarshi qo'yilishi (ikkala termin ham ot bilan ifodalangan) komponent tahlil uchun qanchalik lingvistik bo'lmasa, shunchalik ekstralingvistik dalildir. Obyektning qaysi turga tegishliligi nominator uchun aniq bo'lgan hollarda, bitta identifikatsiya darajasi yetarli bo'ladi. Bunday hollarda kvalifikator identifikatorga teng bo'ladi. Boshqa hollarda, boshqa obyektlar bilan bog'liqligini aniqlash, tushuntirish kabi identifikatsiyaning ikkinchi bosqichiga ehtiyoj tug'iladi.

Yuqorida tavsiflangan tarkibli toponimning uch komponentli tuzilishida hamma komponentlar ham moddiy jihatdan ifodalanishi shart emas. Boshqa tomondan, leksik ifodaning har bir komponenti bir so'zli ham, ko'p so'zli ham bo'lishi mumkin. Demak, tarkibli toponimning uch komponentli tuzilishi quyidagilarni nazarda tutadi:

- 1) nutqiy ifodadagi har bir komponent nolga teng bo'lishi mumkin, lekin u, albatta, nazarda tutilgan. Masalan, Oqdaryo daryosi toponimining uch komponentli tarkibidan nutq aktida faqat bitta komponent ishlatilishi mumkin: Oq, yoki Daryo yoki daryo, lekin tarkibli toponimning semantik majmuasi uchta komponentning ma'nosini o'z ichiga oladi;
- 2) kvalifikator identifikatorga teng bo'lishi mumkin. Bu, odatda, kvalifikator sifatida mahalliy, dialektal termin emas, balki umumiste'moldagi, adabiy geografik termin qo'llanilgan holatlarda sodir bo'ladi: Oqtog' tog'i. Ba'zi hollarda mahalliy geografik terminning semantikasi shaffof bo'lib, u ko'plab dialektlarda keng qo'llaniladi, lekin ma'lum bir hududga bog'langan bo'ladi: Qorasirt tog'i. Kvalifikatorning ma'nosiga o'xshash so'zning umumiste'moldagi apellyativ leksikada yoki toponimlarni o'rganish davrida to'plangan dialektal leksikada ushbu so'zning keng qo'llanilishi bilan bog'liq ravishda ko'proq yoki kamroq aniq bo'lishi mumkin;
- 3) differensiator yoki kvalifikator so'zlar guruhi orqali ifodalanishi mumkin. Differensiallovchi so'zlar guruhi orqali ifodalanadi:

bunda,

- a) toponimik nominatsiyada bir nechta bir xil differensiator yoki kvalifikator qo'llaniladi (Katta Uradaryo daryosi);
- b) differensiator sifatida murakkab so'z birikmasi yoki sodda gap shaklidagi konstruksiyalar qo'llaniladi (Tuyaqisildi darasi, Quduqqasig'di dashti);
- d) differensiator sifatida yaxlit shakllangan birikmali metafora (Biyasig'mas darasi, Kelintoymas balandligi), Odambormas dashti) yoki biron bir hodisa sodir bo'lganligini



tavsiflovchi soʻzlar (Doʻloʻygan dasht, Tuyauchgan dara, Yashinurgan balandlik, Dargʻamurda adiri, Loʻlimurda adiri) ishlatiladi.

Keng tarqalgan ot + sifatdosh qolipidagi atributiv birikmalardan tashqari, boshqa tuzilishlarga ham misollar keltirish mumkin. Masalan: ot+feʻl+ot tipidagi Otchopartepa, Otchoparmaydon, Kunchiqardarvoza; son + feʻl tipi: Biroʻtar darasi; feʻl+ot tipi: Uchganjar jari. Bu nomning semantik jihati uning dastlab biron narsa (masalan, ot) ning jordan yiqilganligini ifodalovchi komponent (differensiator) mavjud boʻlganligini koʻrsatadi. Lekin soʻz birikmasini nomga aylanish jarayonida birinchi komponent tushib qolgan, natijada nom semantikasi toʻliq shakllanmay qolgan. Moslashuv yoʻl bilan (qaratqich+qaralmish) birikib, qaratqish kelishigi qoʻshimchasini saqlab qolgan oronimlar ham uchraydi: Mirzaboboning tepasi, Mullabuvaning hayati, Tugaloqsoqolning sahani, Boltoshshi qiri, Oqparraning gazasi va b.

Toponimlar orasida atoqli ot (gidronim)+turdosh ot (termin) tipidagi tuzilishga ega boʻlganlari ham uchraydi. Ular dastlab gidronim sifatida yasaliq bosqichida qoʻshma nom sifatida shakllangan. Keyinchalik, oronimga oʻtish bosqichida nomlanyotgan orografik obyektни ifodalovchi soʻz-terminni oʻziga biriktirgan. Shuning uchun biz ularni ikki komponentli nom sifatida qaraymiz. Masalan: Oqarbuloq adiri (Chiroqchi), Sangaldak togʻi (Dehqonobod), Sarchashma adiri (Qamashi, Shahrisabz), Navroʻzsoy darasi (Oltinsoy), Chashmakoʻl tepasi (Qarshi), Achchiquduq yaylovi (Qamashi), Chuchchiquduq yaylovi (Dehqonobod), Shakarbuloq yaylovi (Gʻuzor), Gʻurbuloq togʻi (Dehqonobod), Zirabuloq adiri (Shahrisabz) va boshqalar.

Kvalifikator biron-bir birikmaning geografik terminologiyaga aylanish jarayonida, odatda, soʻzlar guruhi bilan kamroq ifodalanadi: oq suv, qora suv, temir darvoza kabi. Bu oʻrinda bunday nomlar termin va toponim oʻrtasida oʻtish bosqichida ekanligini taʼkidlash kerak.

Toponim bir soʻz bilan ifodalanganmi, bir necha soʻz bilan ifodalanganmi yoki nol fiksatsiya bilan ifodalanganmi, bundan qatʼi nazar, tarkibli toponimning semantik majmuasi har bir komponentning ham ononim maʼnolarini, ham asl apellyativlarning maʼnolarini oʻz ichiga oladi.

Murakkab toponimning semantikasi kompleks xarakterni namoyon etadi, lekin u diskret tarzda ifodalangan boʻladi. Identifikator (umumiy qoʻllaniladigan geografik termin) toponimning oʻziga xos onimik mazmunini geografik obyekt turi bilan bogʻlab, boshlangʻich apellyativ maʼnosini va unga mos tushuncha mazmunini toponimning semantik majmuasiga kiritadi. Kvalifikator "tasniflaydi", yaʼni geografik obyektning qaysi turga mansubligini aniqlaydi, tushunchaning oʻziga xosligini belgilaydi va uni mahalliy toponimik tizimga kiritadi. Differensiator "farqlaydi", yaʼni obyektning xususiyatlarini aniqlaydi va nomlanishning motivatsion belgilari va vazifalarini kerakli darajada aks ettiradi. Uch komponentning boshlangʻich apellyativ maʼnolarining oʻzaro taʼsiri apellyativ sintagmalar va ononimlar oʻrtasida nomuvofiqlikka olib keladi, ammo birikmadagi har bir maʼnoni hisobga olish, komponentlarning hatto birortasi boʻlsa ham, nazarda tutilgan nomlanish mazmunini tiklashga imkon beradi.

Haqiqiy va mavhum toponim komponentlari tushunchasi toponim semantikasining denotativ koʻlami bilan bogʻliq. Geografik obyekt haqidagi tasavvur dastlab toponim semantikasiga kiritilganligi (yoki hech boʻlmaganda nominatsiyaga kiritilganligi)dan kelib



chiqib, shuni e'tirof etish kerakki, identifikator ba'zi toponimlarda bo'lgani kabi lingvistik vositalar bilan ifodalanganmi yoki ko'p hollarda toponimdan tashqarida ifodalanganmi, bundan qat'i nazar, nom semantikasining ajralmas qismidir. Lekin shuni nazarda tutish lozimki, ba'zan muloqot paytida u yana lingvistik ifodaga ega bo'ladi.

Toponimni geografik obyektlarning biron bir turi bilan bog'lamasdan formal-semantik tahlilni qilish qiyin. Aks holda nomning semantikasini aniqlab bo'lmasligi mumkin, chunki nomlanish motivlari noaniq bo'ladi. Yangi geografik nomni o'rganuvchi kishi identifikatorni e'tiborsiz qoldira olmaydi. U obyektlar sinfi haqidagi tushunchaga asoslanishi kerak va shundan keyingina uni talqin qilishga kirisha oladi. Ta'kidlash lozimki, nomlovchi toponim ma'nosining tushuncha ifodalovchi qismidan boshlamaydi. Buning uchun ma'noning denotativ (ba'zan konnotativ) qismida shakllangan muayyan obyekt haqida fikr mavjud bo'ladi, obyektlar sinfi haqidagi tushuncha esa dastlab nazarda tutiladi.

Shunday qilib, yangi geografik nomni idrok etuvchi kishi, birinchi navbatda, differensiatorni ham, kvalifikatorni ham, identifikatorni ham saqlab qolishi kerak. Obyektni nomlovchi (nominator) kvalifikator va identifikatorni anglashi mumkin, chunki nominatsiyaning farqlovchi belgisi uning uchun eng muhim hisoblanadi. Barqaror takrorlanuvchi kommunikativ vaziyatda toponimning o'zi (Oqarbuloq) yoki identifikator (buloq, dara) yoki agar kvalifikator va identifikator mos kelsa - differensiator (dara) haqiqatda mavjud bo'lishi mumkin. Formal-semantik tahlilda barcha uch komponentni hisobga olish kerak bo'ladi.

Agar semasiologik yondashuv bilan cheklangan taqdirda, differensiator, kvalifikator va identifikatorning formal-semantik bog'liqligiga asoslanishning o'zi yetarli bo'lmasligi mumkin. Qizilshiram, tog', Qirqqiz, tepalik toponimlarining semantik tahlili o'rganuvchiga nima berishi mumkin? Ularning hozirgi shakliga asoslangan holda nomning haqiqiy ma'nosini aniqlash imkoniyati bo'lmasligi mumkin. Bunda faqat onomasiologik yondashuv asosida toponimlarning tarkibiy qismlari o'rtasida dastlab qanday munosabatlar bo'lganligini aniqlash talab etiladi. Birinchi holda, shiram - "bir tomoni tik jarlik bo'lib, ikkinchi tomoni tog' etagi yoki adirga tutashib ketgan joy" ma'nosidagi mahalliy termindir, ikkinchi holda, Qirqqiz toponimi tarkibidagi qiz so'zining hozirgi o'zbek tilidagi turmushga chiqmagan yosh ayol tushunchasiga aloqasi yo'q. Uning etimonini qadimgi turkiy tildagi balandlik, tepalik, tog' tushunchalari bilan bog'liq quz/qiz orografik termin bilan bog'lash lozim bo'ladi.

Ikkilamchi nominatsiya bilan ham xuddi shunday holat kuzatiladi. Masalan, *Shirinbuloq yaylovi* toponimi ikki bosqichli yasalişga ega. Dastlab, u shirin buloq sifatida buloqning shirin suvli ekanligini xarakterlagan, keyinchalik u onomastik sathga o'tib, buloqning nomi sifatida gidronimga aylangan va qo'shma so'z shaklini olgan. Vaqt o'tishi bilan gidronim buloq atrofidagi yaylov nomiga o'tib, oronimlik xarakterini namoyon etgan, shu orqali u Shirinbuloq yaylovi shaklida birikmali (murakkab) toponim hisoblanadi. Endi nomning semantikasini Shirinbuloq yaqinidagi yaylov ma'nosida izohlash mumkin.

Birlamchi motivatsiyaning o'rnatilishi, hatto gipotetik konstruktsiya shaklida ham, toponimik nominatsiya yo'llarini kuzatishga imkon beradi. Toponimlarni to'plovchi va talqin qiluvchi uchun toponimika tahlilining semasiologik jihati bunday hollarda kam ahamiyat kasb etmaydi. Ikkilamchi motivatsiyaning birlamchi motivatsiyaga zid bo'lishi shart emas. Shunday qilib, Ko'kqarg'a darasi toponimini xalq etimologiyasi *ko'kqarg'a* qushi bilan bog'lashi



mumkin. Unda bu nomning semantikasini ko'kqarg'a qushi ko'p bo'lgan dara ma'nosida izohlashga to'g'ri keladi. Agar onomasiologik yondashuv asosida toponim tarkibidagi o'zgarishlarni tahlil etadigan bo'lsak, boshqacha manzarani kuzatish mumkin. Bu nom ikki bosqichli yasaliş yo'lini bosib o'tgan. Professor T.Nafasov bu nomni ko'k+qarg'+a - toj. ko'k (<kuh) + qapg' + a morfemalaridan iborat; qarg'a -mayda toshlar uyumi, toshtuda, -a yasovchi affiks; kuhqarg'a - toshto'dalari ko'p bo'lgan joy ma'nosida izohlaydi [6, 101]. Bizningcha Ko'kqarg'a oronim sifatida, dastlab, tojikcha Ko'hi qarg'a (mayda toshlari ko'p bo'lgan tog') izofali birikma shaklidagi nom sifatida shakllangan. Keyinchalik izofali birikma ko'rsatkichini yo'qotib, qo'shma nom shakliga o'tish davrida uning fonetik qiyofasi ham o'zgarishga uchragan. Vaqt o'tishi bilan tog' nomi yaqinidagi dara nomiga o'tib, Ko'kqarg'a darasi shaklini olgan.

Ba'zi hollarda, qaysi motivatsiya asosiy ekanligini aniqlash qiyinchilik tug'dirada, ayrim hollarda esa, deyarli mumkin bo'lmaydi. Masalan, Ilondara (dara) oronimini kelib chiqishini ilon ko'p bo'lgan dara yoki shakli ilon harakatiga o'xshagan dara tushunchasi bilan motivatsiya qilish mumkin; Yetimqiz oronimi semantikasini hozirgi shakliga ko'ra ota-onasiz qiz yoki tarixiy qiyofasini tiklagan holda "yolg'iz qir, yolg'iz balandlik" tushunchasi bilan motivatsiya qilish mumkin. Komponentlari bo'ri so'zidan iborat Bo'rixona (adir), Bo'ritaxta (tog'), Bo'rijar(jar) kabi oronimlarda ham shunday xususiyatni ko'rish mumkin. Bo'rixona oronimini bo'ri hayvoni ko'p bo'lgan adir yoki bo'ri yashaydigan joy; Bo'ritaxta oronimini bo'ri hayvoni uchraydigan tog', dovon yoki katta, baland tog', dovon¹; Bo'rijar oronimini bo'rilar ko'p bo'lgan jar yoki o'lchami katta, chuqur bo'lgan jar ma'nosida motivatsiyalash mumkin. Bu motivatsiyalarning birida toponim komponentlari o'rtasida semantik bog'lanishlar yo'q, ikkinchisida esa mavjud.

Tarkibli toponimlarning formal-semantik tahlilining vazifasi komponentlar o'rtasidagi munosabatlar semantik jihatdan shartlangan, differensiator va kvalifikatorning semantik maydoni kesishgan, o'zaro aloqada bo'lgan, ba'zi hollarda esa birgalikda o'sib, terminologik birliklarga yoki frazeologizmga aylangan holatlarni aniqlashdan iborat. Shu sababli, onomasiologik yondashuv, ayniqsa, bosqichma-bosqich nomlanishlarga nisbatan, eng samarali hisoblanadi.

XULOSA

1. Uch komponentli tuzilishga ega bo'lgan oronimlarning hamma komponentlari ham moddiy jihatdan ifodalanishi shart emas. Boshqa tomondan, leksik ifodaning har bir komponenti bir so'zli ham, ko'p so'zli ham bo'lishi mumkin.
2. Toponimlar orasida atoqli ot (gidronim)+turdosh ot (termin) tipidagi tuzilishga ega bo'lganlari ham uchraydi. Ular dastlab gidronim sifatida yasaliş bosqichida qo'shma nom sifatida shakllangan. Keyinchalik, oronimga o'tish bosqichida nomlanyotgan orografik obyektни ifodalovchi so'z-terminni o'ziga biriktirgan. Shuning uchun biz ularni ikki komponentli nom sifatida qaraymiz.
3. Murakkab oronimlarning semantikasi kompleks xarakterni namoyon etadi, lekin u diskret tarzda ifodalangan bo'ladi. Identifikator (umumiy qo'llaniladigan geografik termin)

¹ Bo'ri - ko'p, ko'p; katta miqdor - ariycha bhuri, qadimgi hind. bhuri - ko'p, ulkan; katta; kuchli. Etimologik jihatdan dastlab ariycha o'smoq, yuksalmoq; ortmoq ma'nolariga ega bo'lgan bhau-: bhu - o'zagiga borib taqaladi. [ESIA, p. 190].



toponimning o'ziga xos onimik mazmunini geografik obyekt turi bilan bog'lab, boshlang'ich apellyativ ma'nosini va unga mos tushuncha mazmunini toponimning semantik majmuasiga kiritadi.

4. Shunday qilib, yangi geografik nomni idrok etuvchi kishi, birinchi navbatda, differensiatorni ham, kvalifikatorni ham, identifikatorni ham saqlab qolishi kerak. Obyektning nomlovchi (nominator) kvalifikator va identifikatorni anglashi mumkin, chunki nominatsiyaning farqlovchi belgisi uning uchun eng muhim hisoblanadi.

References:

1. Aslonov A. S. Shofirkon tumani mikrotoponimiyasining lingvistik tahlili: Filol. fan. nom. ... diss. avtoreferati. – Toshkent, 2005. – 23 bet.
2. Buriev S. N. Urgut tumani mikrotoponimiyalarining leksik-semantik tahlili. Filol. fan. nom. ... diss. avtoreferati. – Toshkent, 2010. – B. 24.
3. Dusimov Z. Horazm toponimlari. – Toshkent: Fan, 1985. – 104 b.
4. Murzaev E.M. Mestnyie geograficheskie terminyi i ih rol v toponimii // Voprosyi geografii. - 1970. - № 81. - S. 53-89.
5. Nafasov T. Toponimiyi Kashkadaryinskoy oblasti: Avtoref. dis. ... kand. filol. nauk. – Tashkent, 1968. – 24 b.
6. Nafasov T. Uzbekiston toponimiyalarining izohli lugati . – Toshkent: Ÿqituvchi, 1988. – 290 b.
7. Nikonov V. A. Vvedenie v toponimiku, Moskva: Nauka, 1965. -305 s.
8. Podolskaya N.V. Slovar ruskoy onomasticheskoy terminologii. M.: «Nauka», 1978. 200 s.
9. Rastorgueva V.S., Edelman D.I. Erimologicheskiy slovar iranskih yazyikov. T. 2. B-D / V.S. Rastorgueva, D.I. Edelman. -M. : Voet. lit., 2003. -502 s.
10. Superanskaya A.V. Obschaya teoriya imeni sobstvennogo. Moskva: Nauka, 1973. 365 s.
11. Temirov SH. Samarkand viloyati oronimlarining lisoniy tadbiri. Filol. fan. falsaf. doktori dis. avtoref. – Samarkand, 2019. – B.19.
12. Toporov V.N. K probleme klassifikatsii v toponimii // Issledovaniya po strukturnoy tipologii. - M., 1963. - S. 226-231.
13. Ulukov N.M. Uzbek tili gidronimlarining tarixiy-lisoniy tadbiri: Doktorlik diss. avtoreferati. – Toshkent, 2010. – B. 38.
14. Holmuminov H. Mikrotoponimiya Boysunskogo rayona i ego okrestnostey: Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. – Tashkent, 1993. – 21 s.
15. Enazarov T.J. Shahrisabz hududi joy nomlarining tarixiy-kiyosiy tahlili: Filol. fan. nomz... diss. avtoref. – Toshkent, 1993. – 24 b.